



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|--|
| 1. B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|---|
| 1. M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

ADABIYOTSHUNOSLIKDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ABDURAUFI FITRATNING TA'LIM TIZIMIGA TA'SIRI

Xalilova Ruxsora Raupovna,

BuxDPI f.f.f.d(PhD), dotsenti

Tolibova Maftuna Zokir qizi,

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning ta'lim tizimiga ta'siri hamda adabiyotshunoslikdagi zamonaviy yondashuvlar haqida so'z yuritiladi. Bundan tashqari adibning g'oyalari, asarlaridagi ilgari surilgan ilmiy-nazariy fikrlari asosida yoritilgan qarashlar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim islohoti, zamonaviy yondashuv, yangi usul maktablari, adabiyotshunoslik, A. Fitrat g'oyalari, ilmiy qarashlar.

Annotation: This thesis examines Abdurauf Fitrat's impact on the educational system and explores contemporary approaches within literary studies. Intellectual contributions, uncovering perspectives shaped by the scientific and theoretical concepts articulated in this works.

Keywords: Educational reform, modern approaches, new method schools, literary studies, A. Fitrat's ideas, scientific perspectives.

O'zbekiston tarixida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakati madaniyat, ilm-fan va ta'lim sohalarida tub o'zgarishlar olib kelgan. Jadidlar - yangi usul maktablari asoschilaridir, ular zamonaviy bilimlarni tarqatish, yoshlarni ilm-fan va texnologiyalarga yo'naltirish orqali jamiyatni rivojlantirishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan edilar. Bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimida jadidchilik harakatining ta'siri yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Jadidlar xalqni ma'rifatli qilish, jamiyatni rivojlantirish uchun birinchi navbatda ta'lim islohoti zarur, deb hisoblashgan. Ular maktablarda yangi pedagogik usullarni joriy qilish, yosh avlodni jahon ilmi bilan tanishtirishga e'tibor berishgan.

Shulardan biri Abdurauf Fitrat o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining tarixi hamda nazariyasiga oid bir qancha tadqiqotlar yaratgan. Shuningdek "Adabiyot qoidalari" (1926), "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" (1927), "Eng qadimgi turk adabiyoti" (1927), "O'zbek klassik adabiyotida namunalar" (1928), "Arus" (1936) kabi kitoblarning muallifi. [4]

Fitrat jadidlar bilan o'z vaqtida milliy ta'lim tizimini shakllantirish va zamonaviy bilimlarni keng joriy qilishda katta e'tibor qaratgan. Bu ta'sir bugungi kunda ta'lim tizimida bir qator sohalarda o'z aksini topgan. Jumladan:

Bugungi O'zbekiston ta'lim tizimida ham bu an'ana davom ettirilmoqda. Maktablar va universitetlarda matematika, fizika, kimyo, biologiya, informatika kabi fanlar chuqur o'rgatilib, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish odatiy holga aylangan. Shuningdek, ta'limning turli bosqichlarida jahon tamadduni va texnologik yutuqlarni o'rgatish jadidlarning yangi usul maktablaridagi tajribalari bilan uyg'un keladi. Bu uyg'unlikni adabiyotshunoslik sohasida ham ko'rish mumkin. O'quv jarayonining qiziqarli va interaktiv bo'lishida jadidlar eski usuldagi faqat yodlash va qat'iy an'anaviy o'qitish uslubidan voz kechib, interaktiv va amaliy darslarga e'tibor qaratdilar. Bugungi kunda bu tamoyillar amaliy laboratoriya mashg'ulotlari, zamonaviy texnologiyalar orqali o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishda davom etmoqda. Masalan, hozirda o'quvchilar zamonaviy laboratoriya asbob-uskunalarida amaliy fanlar bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega, informatika va robotexnika kabi fanlar maktab dasturlariga kiritilgan.[1]

Jadidlar o'quvchilarni hayotga tayyorlash uchun ta'limning amaliyotga yo'naltirilgan bo'lishini ta'kidlashgan. Hozirgi kunda maktablar va oliy o'quvlarida nazariy bilimlarni hayotda qo'llash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, A. Fitratning ta'lim tizimiga qo'shgan hissasi ham zamonaviy yondashuvlar bilan uyg'unlashib, milliy qadriyatlar va dunyoviy bilimlarni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. U ilgari surgan yangi usul maktablari, ta'limni isloh qilish borasidagi qarashlari va adabiy merosni ilmiy asosda o'rganishga bo'lgan intilishi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Demak, Fitratning g'oyalari adabiyotshunoslikda metodologik yangilanishlarga asos bo'libgina qolmay, balki zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishiga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. Fitrat. Tanlangan asarlar. – T.:Ma'naviyat, 2009-y.
2. Haydarov B. "Jadidlar va ta'lim islohotlari". – T.: Ma'naviyat, 1999-y.
3. Boltaboyev H. "Fitratning ilmiy merosi". – T.:1996-y.
4. Qurbonova M. "Fitrat – tilshunos". – T.:1996-y.